

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ISRAILOV NODIR RAHIMJONOVICH

**XV–XVIII ASRLAR FRANSUZ TARIXSHUNOSLIGIDA
AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING
TADQIQ ETILISHI**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) disseratation

Israilov Nodir Rahimjonovich

XV–XVIII asrlar fransuz tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi 3

Исраилов Нодир Рахимжанович

Изучение жизни и государственной деятельности Амира Темура во французской историографии XV–XVIII веков 25

Israilov Nodir Rahimjonovich

Study of the life and state activity of Amir Temur in French historiography of the 15th–18th centuries 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ISRAILOV NODIR RAHIMJONOVICH

**XV–XVIII ASRLAR FRANSUZ TARIXSHUNOSLIGIDA
AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING
TADQIQ ETILISHI**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1165 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmonov Baxriddin Axmedovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Doniyorov Alisher Xudayberdiyevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasulova Durdona Baxronovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "28" 07 soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (549 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM biosi). (Tel.: (99873) 224-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil "14" 07 dagi 73 raqamli revestr bayonnomasi)



N.B.Dexkanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

Alimova

N.O.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d., dotsent

Abdullayev

M.G.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlari barcha mintaqalarni qamrab olayotgan sharoitda katta hududlarni birlashtirgan, xalqlar o'rtasidagi integratsion jarayonlarni rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan tarixiy shaxslarning, jumladan, Amir Temurning hayoti va davlatchilik faoliyatini o'rganishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu kabi tarixiy shaxslar faoliyatini tadqiq etish globallashuvning yutuqlaridan samarali foydalanish, aynan shu jarayon natijasida kun tartibiga chiqayotgan ayrim masalalar yuzasidan to'g'ri yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko'plab sharqshunoslik markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalarida Amir Temur tarixi keng o'rganilmoqda¹. O'rta asrlardayoq Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati yoritilgan sharq tillaridagi manbalarning fransuz tiliga tarjima etilganligi, mavzuga oid yirik ilmiy asarlarning ushbu tilda yaratilganligi jahon temurshunosligining shakllanishiga va rivojlanishiga o'zining katta ta'sirini o'tkazgan. Biroq, mazkur masala tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilmagan. Shuning uchun ham, Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining fransuz tarixshunosligida yoritilishi masalasini tahlil etish temurshunoslikning jahonda taraqqiy etish genezisini ochib berishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida dunyo sivilizatsiyasining rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"². Ana shunday buyuk shaxslardan biri Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining jahonda o'rganilishi masalasini tadqiq etish, uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi munosib o'rnini anglashga, yosh avlodni Vatan tarixini yanada chuqur idrok etishi, kelajakka mustahkam ishonch bilan qarashiga xizmat qiladi. Ushbu jihatlar tadqiqotning dolzarbligi va zarurligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2995-son, 2017-yil 20-iyundagi

¹ Markaziy Osiyo axborotlari va tadqiqotlari assotsatsiyasi (*Association de recherche et d'information sur l'Asie Centrale – ARIAC*: <https://ifeac.hypotheses.org/>); Sharq tillari va sivilizatsiyalari milliy instituti (*L'Institut national des langues et civilisations orientales – INALCO*: <https://www.inalco.fr/>); Ijtimoiy fanlar oliy maktabi (*École des hautes études en sciences sociales – EHESS*: <https://www.ehess.fr/fr/>); Markaziy Osiyo tadqiqotlari fransuz instituti (*L'institut français d'études sur l'Asie Centrale – IFEAC*: <https://journals.openedition.org/asiacentrale/>); Ilmiy tadqiqotlar milliy markazi (*Centre national de la recherche scientifique – CNRS*: <https://www.cnrs.fr/fr/>); Marin Barleti universitetining Eron va forsshunoslik instituti (Albaniya: <https://iranalbania.ir>); Islom tarixi, san'ati va madaniyati tadqiqot markzai (*Research Center for Islamic History, Art and Culture – IRCICA*: <https://www/ircica.org/>); Garvard Universitetining Rossiya va Yevroosiyoni o'rganish Devis markazi (Buyuk Britaniya: <https://daviscenter.fas.harvard.edu>).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgustdagi ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvida so'zlagan nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/855>

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–3074-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda PQ–4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, ushbu sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish, ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixini XV–XVIII asrlarda tadqiq etgan fransuz sharqshunoslarining asarlarini turli jihatlarini o‘rganilgan. Ular davriy va hududiy tamoyillar asosida 3 guruhga bo‘lib tahlil etildi: 1) xorijiy mamlakatlarda nashr qilingan adabiyotlar; 2) Rossiya imperiyasi va sovet davri adabiyotlari; 3) mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, XV–XVIII asrlar fransuz tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi bo‘yicha alohida tadqiqot olib borilmagan. Bu esa mazkur masalani o‘rganish, ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatga molik vazifa ekanligidan dalolat beradi (Masalaning tarixshunosligi I bobning ikkinchi paragrafida batafsil yoritilgan).

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni asosida tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XV–XVIII asrlarda Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o‘rganilishini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Fransiyada “Temurshunoslik”ning shakllanishi va rivojlanishiga ta‘sir etgan omillarni hamda uning taraqqiyot bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil etish;

Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini tadqiq etgan fransuz sharqshunoslari asarlarining jahon temurshunosligi rivojida o‘rnini ko‘rsatib berish;

Jan Boden, Lui Le Rua hamda Jan du Beklarning fransuz temurshunosligining shakllanishidagi ahamiyatini ochib berish;

Bartelemy d’Erbeloning “Sharq kutubxonasi” asarida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining yoritilishini tahlil etish;

Marga de Tilli hamda Jozef De Gin asarlarini tadqiq etish orqali fransuz temurshunosligida manbalar tahlili hamda temurshunoslikning ichki tanqidi o‘zib borganligini yoritish;

Fransuz ma'rifatparvarligi davrida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o'rganilishi masalasini tadqiq etish.

Tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida XV–XVIII asrlarda Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik tarixi tadqiq etilishi belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini XV–XVIII asrlarda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini tadqiq etishga bag'ishlangan fransuz sharqshunoslarining asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ob'ektivlik, xolislik, izchillik tamoyillari, qiyosiy-tarixiy tahlil, mazmuniy tahlil, tizimlashtirish, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Fransiyada (XV–XVIII asrlar) Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o'rganilishi to'rt bosqichda kechganligi va uning birinchi bosqichi (XIV asr oxiri–XV asr boshlari) Usmonli turk sultoni Yildirm Boyazidga qarshi Sharqdan ittifoqchi izlash jarayonida Amir Temur tarixini o'rganishga kirishilganligi, ikkinchi bosqich (XVI asr) Fransiyadagi diniy urushlarga barham berish, markazlashgan davlat tartibotini kuchaytirish jarayonida Amir Temurning davlatchilik tajribasini o'rganishga ehtiyojning oshganligi, uchinchi bosqich (XVII–XVIII asr boshlari) mutlaq monarxiya tartibotining o'rnatilishi, Fransiya qirolligi ta'sirining Sharqda oshib borishi doirasida Amir Temur tarixiga oid manbalarning keng tadqiq etilishi, to'rtinchi bosqich (XVIII asr) fransuz ma'rifatparvarligida insoniyatning yagona tarixini yaratish va jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan xalqlar tarixini o'rganishning taraqqiy etishi bilan izohlanishi dalillangan;

XX asrda rus sharqshunosi A.Y.Yakubovskiy tomonidan bildirilgan temuriylar davri muarrixlari Moskva shahrining joylashuvi bo'yicha to'g'ri tasavvurga ega bo'lmaganligi haqidagi fikr, aslida XVIII asrda fransuz sharqshunosi L.Langlening shu mazmundagi noto'g'ri xulosasi ta'sirida kelib chiqqanligi asoslangan;

G'arbiy Yevropada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini turli tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil etish asosida chuqur va keng tadqiq etgan ilk tarixchi olim Bartalemi d'Erbelo ekanligi dalillangan;

XVII asrda Fransiyada nashr ishlari ustidan qattiq senzura o'rnatilgan sharoitda ham qirollik hukumatining xayrixohligi natijasida Amir Temur tarixiga oid bir nechta nashrlar e'lon qilinganligi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublika va xorij kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga oid XV–XVIII asrlarda fransuz sharqshunoslari tomonidan yaratilgan 10 dan ortiq asarlar aniqlanib, tavsiflandi. Tadqiqot mavzusi uchun muhim hisoblangan Jan-Baptist Marga de Tilli "Mo'g'ullar imperatori va Osiyoni zabt etgan Tamerlanning tarixi" hamda Jozef de Gin "Xunlar, turklar va mo'g'ullarning umumiy tarixi" kabi asarlardagi Amir Temur tarixiga oid bo'lgan ma'lumotlardan o'zbek tarixshunosligida ilk marotaba keng tarzda foydalanildi;

Amir Temur faoliyatining fransuz qirollari hamda boshqa davlat arboblari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilishi o'zbek davlatchiligi tarixining jahonda tutgan o'rnini ochib berishga xizmat qilganligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tarixshunoslikni o'rganishdagi yangi yutuqlar, samarali nazariy usullarga tayanilganligi, Fransiya Milliy kutubxonasining "Gallica" hamda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning "Nodir" noyob manbalar zalida saqlanuvchi fransuz sharqshunoslarining asarlaridan unumli foydalanilganligi, tadqiqot mavzusi bo'yicha natijalar respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda, konferensiyalarda muhokama qilinganligi, tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Fransiyada XV–XVIII asrlarda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining yoritilishi muammosini tadqiq etish mazkur mamlakat tarixshunosligi dunyo bo'ylab temurshunoslikning rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazganligi uchun ham jahon temurshunosligi erishilgan yutuq va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelib chiqish genezisini tahlil etish va tushunish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarda, O'zbekiston tarixiga oid davlat dasturlarini bajarishda, dissertatsiyadagi umumlashtirilgan ma'lumotlaridan O'zbekistonning o'rta asrlar davri tarixini o'qitishda maktab, litsey, oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilari uchun yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XV–XVIII asrlar fransuz tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar, ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Fransiyada (XV–XVIII asrlar) Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o'rganilishi to'rt bosqichda kechganligi va uning birinchi bosqichi (XIV asr oxiri – XV asr boshlari) Usmonli turk sultoni Yildirm Boyazidga qarshi sharqdan ittifoqchi izlash jarayonida Amir Temur tarixini o'rganishga kirishilganligi, ikkinchi bosqich (XVI asr) Fransiyadagi diniy urushlarga barham berish, markazlashgan davlat tartibotini kuchaytirish jarayonida Amir Temurning davlatchilik tajribasidan foydalanish maqsad qilinganligi, uchinchi bosqich (XVII–XVIII asr boshlari) mutlaq monarxiya tartibotining o'rnatilishi, Fransiya qirolligi ta'sirining sharqda oshib borishi doirasida Amir Temur tarixiga oid manbalarning tadqiq etilishi, to'rtinchi bosqich (XVIII asr) fransuz ma'rifatparvarligida insoniyatning yagona tarixini yaratish va jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan xalqlar tarixini o'rganishning taraqqiy etishi bilan izohlanishi kabi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanalining "Tarixiy savol" ko'rsatuvi senariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 31-iyuldagi 06-31-904-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvning Amir Temur tarixini XV–XVIII

asrlarda Fransiyada o'rganilishiga oid ma'lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan;

XX asrda rus sharqshunosi A.Y.Yakubovskiy tomonidan bildirilgan temuriylar davri muarrixlari Moskva shahrining joylashuvi bo'yicha to'g'ri tasavvurga ega bo'lmaganligi haqidagi fikr, aslida XVIII asrda fransuz sharqshunosi L.Langlening shu mazmundagi noto'g'ri xulosasi ta'sirida kelib chiqqanligi kabi ma'lumotlardan Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 23-iyuldagi 04-05/2750-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallar muzeyning "Tarix bo'limi" fondini boyitishga, muzeyning Amir Temur tarixiga oid manbalarini ilmiylik va ishonchlilik jihatdan takomillashtirishga xizmat qilgan;

G'arbiy Yevropada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini turli tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil etish asosida chuqur va keng tadqiq etgan ilk tarixchi olim Bartalemi d'Erbelo ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanalining "Tarixiy savol" ko'rsatuvi senariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 31-iyuldagi 06-31-904-son ma'lumotnomasi). Foydalanilgan materiallar ko'rsatuvning mazmunan va ilmiy dalillarga boy hamda qiziqarli bo'lishini ta'minlagan;

XVII asrda Fransiyada nashr ishlari ustidan qattiq senzura o'rnatilgan sharoitda ham qirollik hukumatining xayrixohligi natijasida Amir Temur tarixiga oid bir nechta nashrlar e'lon qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 23-iyuldagi 04-05/2750-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallar muzeyning "Tarix bo'limi" fondini boyitishga, muzeyning Amir Temur tarixiga oid manbalarini ilmiylik va ishonchlilik jihatdan takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-nazariy konferensiya va seminarlarda, jumladan, 4 ta xalqaro hamda 4 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 154 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga

joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“XV–XVIII asrlar Fransiya tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o'rganilish bosqichlari va tarixshunosligi”** deb nomlangan birinchi bobida Fransiyada Amir Temur tarixining o'rganilishiga ta'sir ko'rsatgan omillar va fransuz tarixchilarining Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga bag'ishlagan asarlari hamda bildirilgan fikr-mulohazalarining fanda o'rganilishi tahlil qilingan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi **“XV–XVIII asrlar Fransiyada temurshunoslikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”** deb nomlanadi. XIV asrning so'nggi yillarida Sulton Boyazid tomonidan birlashgan Yevropa qo'shinining mag'lub etilishi, Fransiya uchun Sharqdan ittifoqchi izlash majburiyatini keltirib chiqardi. Bu esa, Fransiyada Amir Temur tarixini o'rganilishiga dastlabki turtki bo'lgan jarayondir. Qirol Karl VI ko'rsatmasiga binoan, Amir Temurning davlatchilik sohasidagi faoliyatini o'rganish marshal Jan II Busikoga topshirildi. U *“Marshal Busiko amalga oshirgan ishlar”*³ asarining XXXVII bobida Sohibqiron faoliyatiga to'xtalib o'tgan⁴. Mazkur asar Amir Temur tarixiga bag'ishlagan Fransiyadagi dastlabki tadqiqot hisoblanadi.

XVI asrda Fransiyada diniy nizolarning avj olishi hamda qirollarning mutlaq monarxiyaga erishish istagi moziyning buyuk hukmdorlari qatorida Amir Temur faoliyatini o'rganish ehtiyojini keltirib chiqardi. Shuningdek, G'arbiy Yevropada Gabsburglar ta'sirining ortib borishi natijasida Fransiya sharqdan o'ziga ittifoqchi izlay boshladi. Natijada, XVI asrning birinchi yarmiga kelib Fransiya va Usmonlilar o'rtasida *“Fransuz–Usmonli”* ittifoqi tuzildi. Mazkur hamkorlik natijasida fransuz diplomatlari Konstantinopolga bir necha marotaba tashrif buyurganlar. Ushbu xizmat safarlari elchilarga Usmonlilar imperiyasidagi ijtimoiy hayotni o'rganish imkonini yaratdi. Fransiyada katoliklar va protestantlar o'rtasida kurash kechayotgan bir davrda Kichik Osiyoda nasroniylar, musulmonlar va yahudiylarning bir hukmronlik ostida, uyg'unlikda istiqomat qilayotganliklarini kuzatgan Giyom Postel qarashlarida *“universalizm”* tushunchasi paydo bo'lgan. XVI asrning birinchi yarmida Fransiyada mazkur g'oya yuqori natijaga erishmagan bo'lsa-da, diniy urushlar* davrida universalizm tushunchasini jamoatchilikka yoyishda Jan Boden (1530-1596)ning xizmatlari muhimdir. Fransuz huquqshunosi *“Respublikaning olti kitobi”*⁵ asarida universalizm, suverenitet, ommaviy huquq kabi masalalarni qadimgi hamda o'rta asr hukmdorlari faoliyati misolida yoritgan. Mazkur tadqiqotning ikkinchi kitob V bobida Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlariga to'xtalib o'tgan muallif, ikki hukmdor faoliyatining farqli jihatlarini tahlil etgan⁶.

³ Contenant les Mémoires du bon Messiere Jean Le Maingre, dit Boucicaut, Maréchal de France. – Collection universelle des mémoires particuliers, relatifs a l'histoire de France. Tome VI. – Paris: Rue d'Anjou – Dauphine, 1785. – 476 p.

⁴ Contenant les Mémoires du bon Messiere Jean Le Maingre, dit Boucicaut, Maréchal de France. – P. 162-165.

* Izoh: 1562–1598-yillarda Fransiyada katoliklar va protestantlar o'rtasidagi fuqarolar urushi. Qarang: Всемирная история. / Отв. Редакторы: Е.М.Жуков, Е.С.Варга, В.П.Волгин, М.Я.Гефтер. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1958. Т IV. – С. 225-229.

⁵ Bodin I. Les Six livres de la République. – Paris: Chez Jacques du Puys, Libraire Juré, à la Samaritaine, 1577. – 759 – P. (keyingi o'rinlarda – Bodin I. Les Six livres de la République.)

⁶ Bodin I. Les Six livres de la République. – P. 253-255.

Fransiyada XVI asrda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini keng tahlil etgan sharqshunos Lui Le Rua bo‘lib, tarixshunos o‘zining “Olamdagi narsalarning turliligi va o‘zgaruvchilik to‘g‘risida”⁷ nomli asarida Sohibqironning diniy sohaga bo‘lgan munosabatiga ham to‘xtalib o‘tgan⁸. Muallif dunyoning XV asr tarixini talqin etishni Amir Temur davrini yoritish bilan boshlash kerakligini ta’kidlagan⁹.

Fransiyada XVII asrdan boshlab boshqaruvda qirollarning mutlaq monarxiya tartibotini o‘rnatishga intilishlari, sharqshunoslikning alohida fan sohasi bo‘lib rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Fransiyada tarixshunoslarga sharq manbalarini fransuz tiliga o‘girish asosida qirol hamda fuqarolarda Osiyo haqidagi tassavurlarni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida temuriylar davriga oid manbalarni tadqiq etishga zamin yaratgan. Natijada, 1658-yilda Per Vate tomonidan Ahmad ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur, fi tarixi Taymur” asari “Buyuk Tamerlan tarixi” nomi bilan arab tilidan fransuz tiliga qilingan tarjima nashr qilindi¹⁰. Ichki siyosatda zodagonlar qarshiligini sindirish, protestant huquqlariga cheklovlar kiritish kuchaydi. Matbuot hamda matbaa uylariga qattiq senzura joriy etildi. Fransuz qirolining noshirlik sohasidagi qattiqqo‘llik siyosatiga qaramay, Amir Temur faoliyati yoritilgan asarlar Fransiyada chop etilishda davom etgan¹¹. Bu esa Amir Temur tarixini o‘rganishga hech qanday to‘siq bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Masalan, 1677-yilda “Buyuk Tamerlan tarixi” nomi qayd etilgan tadqiqot Senyor de Senkton tomonidan nashr etildi¹².

Fransiyaning Levant savdo yo‘li doirasida yetakchiligini mustahkamlashga intilishi, sharqshunoslarga bo‘lgan talabni oshirdi. Shu bois, orientalistlarni moliyaviy rag‘batlantirish hukumat siyosati darajasiga yetdi. Bartelemi d’Erbelo de Molenvil (1625–1695) shunday orientalistlardan biri bo‘lib, olimga bir yil uchun 1500 funt sterling maosh tayinlangan¹³. Shundan so‘ng, Bartelemi d’Erbelo qirol ko‘rsatmalari asosida Sharq xalqlari tarixini tadqiq etishni boshladi. “Sharq kutubxonasi” yoki “Universal lug‘at” deb nomalanuvchi mazkur tadqiqotdan Sharq davlatlari tarixi qatorida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab ma’lumotlar bayon etilgan¹⁴.

Lyudovik XIV davrida yosh kadrlarni sharq tillarini o‘zlashtirish uchun Yaqin Sharqqa yuborish ishlari davom etdi. 1670-yilda vazir Kolber tomonidan Turkiya,

⁷ Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l’univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuilité, & memoire humaine iusques à present. – Paris: Chez Pierre l’Huillier, rue S. Jacques à l’Oliuier, 1576 – 118 p. (keyingi o‘rinlarda – Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l’univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuilité, & memoire humaine iusques à present.)

⁸ O‘sha asar – P. 109-a.

⁹ O‘sha asar. – P. 97-a.

¹⁰ Vattier P. L’histoire du grand Tamerlan. – Paris: Chez Remy Soubret, 1658. – 248 p.

¹¹ Sainctyon S. Histoire du grand Tamerlan // – Paris, Journal des Savants. 1677. Du Lundy 13. Decembre. № XXII. – P. 233.

¹² Sainctyon S. Histoire du grand Tamerlan. – Paris: Chez Andre’ Pralard, 1677. – 424 p.

¹³ Barthélemi d’Herbelot de Molainville. Eloge de monsieur DHerbelot. // Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal. – Paris: Par la Compagnie des Libraires, 1697. – P. 1. (Janob Erbeloga maqtoqlar qismi 2 sahifa bo‘lib, asarning old qismiga ilova tarzda qo‘shilgan va sahifalari raqamlanmagan. Shu sababli sahifalar mustaqil tarzda raqamlandi.) (keyingi o‘rinlarda – Barthélemi d’Herbelot de Molainville. Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal.)

¹⁴ Barthélemi d’Herbelot de Molainville. Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal. – P. 877-888.

Suriya va Eronga yuborilgan Peti de la Krua (1653–1713) Amir Temur tarixining muhim sahifalari o‘rin olgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini fransuz tiliga tarjima etdi¹⁵.

XVIII asrda Fransiyada sharqshunoslar tomonidan Amir Temur to‘g‘risida ilmiy mulohazalarni o‘z ichiga qamrab olgan adabiyotlar yaratish kuchaydi. Masalan, missionerlik bilan shug‘ullangan yozuvchi Jan-Baptist Marga de Tilli (1689–1747), Sohibqiron tarixiga murojaat etib, 1739-yilda “Mo‘g‘ullar imperatori va Osiyoni zabt etgan Tamerlanning tarixi” nomli ikki qismdan iborat asarini chop etgan¹⁶. XVIII asrda Temuriylar davlati haqida tadqiqot olib borgan yana bir sharqshunos Jozef de Gindir (1721–1800). U “Xunlar, turklar va mog‘ullarning umumiy tarixi” nomli asarini chop etgan¹⁷. Fransuz sharqshunosi tomonidan 1756-1758-yillar davomida yozilgan mazkur tadqiqot 5 jilddan iborat bo‘lib, Amir Temur va temuriylar davri tarixi asosan uchinchi va to‘rtinchi qismlarda bayon etilgan¹⁸.

Amir Temur tarixi bilan Fransiyada ma‘rifatparvarlar ham tadqiqot olib borganlar. Mari Arue Volter (1694-1778) “Millatlarning ruhi va ahloqi, moziyning Buyuk Karldan Lyudovik XIII gacha bo‘lgan asosiy tarix faktlar haqidagi insho” nomli asarini chop etishga muvaffaq bo‘lgan¹⁹. Mazkur yirik tadqiqotning ikkinchi jild, 88-bobi Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib²⁰, unda Sohibqiron tarixi Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon kabi hukmdorlar faoliyati bilan qiyosiy tahlil etilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Hindiston masalasida Fransiya va Angliya o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi natijasida “Temur tuzuklari”ning fransuz tilidagi tarjimasi 1787-yilda L.Langle tomonidan chop etildi²¹. Shuningdek, L.Langle Amir Temur tarixi haqida “Temurning hayoti” deb nomlangan asar ham yozgan bo‘lib, ushbu tadqiqot “Temur tuzuklari” asarining kirish qismidan o‘rin olgan²².

¹⁵ Cherefiddin Ali Yezdi. Histoire de Timur – bec, connu sous le nom du Grand Tamerlan, empereur des mogols et tartares. Traduite en François par feu M. Petis de la Croix. – Delf, chez Reinier Boitet, 1723. Vol 4.

¹⁶ Margat J.B. Histoire de Tamerlan, empereur des Mogols et conquerant de l’Asie. – Paris: Chez Hippolite-Louis Guerin, 1739. – part I 298 p.; part II 392 p (keyingi o‘rinlarda – Margat J.B. Histoire de Tamerlan, empereur des Mogols et conquerant de l’Asie.).

¹⁷ De Guignes J. Histoire Générale des Huns, des Turcs, des Mogols et des autres Tartares Occidental avant et depuis Jesus Christ jusqu’a à present. – Paris: Desaint et Saillant, 1756-1758. Vol. 4.

¹⁸ De Guignes J. Histoire Générale des Huns, des Turcs, des Mogols et des autres Tartares Occidental avant et depuis Jesus Christ jusqu’a à present. – Paris: Desaint et Saillant, 1775-1758. – Vol. 3. – P. 71-72, 169, 215, 263, 285-286; Vol.4. – P. 2-362.

¹⁹ M^R. de Voltaire. Essai sur les moeurs et l’esprit des nations et sur les principaux faits de l’histoire depuis Charlemagne jusqu’a Luis XIII. – Geneve, 1771. – T. I. – 553 p.

²⁰ M^R. de Voltaire. Essai sur les moeurs et l’esprit des nations et sur les principaux faits de l’histoire depuis Charlemagne jusqu’a Luis XIII. – De l’imprimerie de la société littéraire – typographique, 1785. – P. 418-426. (keyingi o‘rinlarda – M^R. de Voltaire. Essai sur les moeurs et l’esprit des nations et sur les principaux faits de l’histoire depuis Charlemagne jusqu’a Luis XIII.)

²¹ Instituts politiques et militaires de Tamerlan, proprement appelé Timour, Écrit par lui-même en Mogol, & traduits eu François, sur la version Persane d’Abou-Taleb-al-Hosseïni, avec la Vie de Conquerant, d’après les meilleurs Auteurs Orientaux, des Notes, & des Tables Historique, Géographique, & c. Par L.Langlès. – Paris. Chez NEÉ de la Rochelle, Libraire, rue du Hurepoix, 1787. – 402 p.

²² Langlès L. Vie de Timour // Instituts politiques et militaires de Tamerlan, proprement appelé Timour, Écrit par lui-même en Mogol, & traduits eu François, sur la version Persane d’Abou-Taleb-al-Hosseïni, avec la Vie de Conquerant, d’après les meilleurs Auteurs Orientaux, des Notes, & des Tables Historique, Géographique, & c. Par L.Langlès. – Paris. Chez NEÉ de la Rochelle, Libraire, rue du Hurepoix, 1787. – P. 33-122 (keyingi o‘rinlarda – Langlès L. Vie de Timour).

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi fransuz tarixchilarining Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga oid qarashlarini fanda o'rganilishiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotlar davriy va geografik jihatdan 3 guruhga bo'lib tahlil etildi:

Xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar. O'z asarlarida fransuz tarixchilarining Amir Temur faoliyatiga oid asarlariga turlicha munosabat bildirgan olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu borada nemis va ingliz sharqshunoslarining asarlariga to'xtalib o'tish mumkin. Ushbu davlatlar tarixshunoslari²³ o'z tadqiqotlarida Amir Temurning hayoti va davlatchilik faoliyati bo'yicha salbiy va ijobiy fikr bildirgan fransuz orientalistlarining asarlaridan keng foydalanishgan. XVII–XVIII asrlarda Amir Temur tarixiga oid manbalarning fransuz sharqshunoslari tomonidan tarjima etilishi, jahon temurshunoslik taraqqiyotida muhim o'rin tutganligi AQSh va vengriyalik tarixchilar asarlarida bayon etilgan²⁴. XX asrga kelib jahon tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga bag'ishlangan dissertatsiyalar²⁵ yaratilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda fransuz tarixshunoslarining asarlaridan keng foydalanilgan²⁶.

So'nggi yillarda turk tarixshunosligida XV – XVIII asrlarda Amir Temur tarixini bayon etgan fransuz tarixchilarining asarlarini o'rganishga e'tibor yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Turk tarixshunoslari Amir Temurning diniy, davlat boshqaruvi hamda harbiy sohadagi faoliyatini yoritgan fransuz sharqshunoslarining asarlariga o'zlaring ijobiy munosabatlarini bildirganlar²⁷.

Rossiya imperiyasi va sovet davrida yaratilgan asarlar. Rossiya tarixshunosligida G'arb orientalistlari, xususan, fransuz sharqshunoslarining Amir Temur faoliyatini yoritgan asarlarini o'rganish XIX asrda alohida bosqichga chiqdi. N.M.Karamzin, V.V.Grigoryev, V.V.Bartold kabi olimlar Amir Temurning Oltin O'rda hamda Usmonli turklar bilan olib borgan kurashlari tarixini yoritishda fransuz tarixshunoslarining asarlaridan foydalanganlar²⁸.

²³ Leunclavius J. Neuwe Chronica turkischer Nation von Türcken selbs beschrieben. – Franckfurt-Mayn. Bey Andres Wechels seligen Erben, nemlich Claudi de Marne und Johan Aurbi, 1590. – P. 210; Tamerlan in den Literaturen des westlichen Europas. Degenhart M. // Archiv für das stadium der neueren sprachen und literaturen Begründet von Ludwig Herrig – Braunschweig: Druck und verlag von George Westermann. 1909. – CXXIII Band der neun serie XXIII. – P. 253-278; Intze O. Tamerlan unda Bajazet in den literaturen des abendlandes. – Erlangen: Druck der Univ-Buchdruckerei von E.Th.Jacob. – 1912. – P. 4-5; 18; 22-23; Xammer J. Geschichte der Golden Horde in Kiptschak das ist: der mongolen in Russland. – Pesth, C. A. Hartleben's Verlag, 1840 – P. 343; Gibbon E. The History of the Decline and Fall of the Roman Empire. – London: Frederick Warne. In three volumes. Vol III – 1782. – P. 620.

²⁴ Lamb H. Tamerlane the Earth shaker. – Thornton Butterworth LTD. 15 Bedford Street, STRAND, W.C. 2, 1929. – P. 258; Саид Э.В. Ориентализм. Западные концепция Востока [Текст] / Пер. с англ. А.В.Говурнова. – Санкт-Петербург: «Русский Мирь», 2006. – 638 с; Vámbéry A. History of Bokhara from the earliest period down to the present. – London: Henry S. King & Co, 1873. – P. XI, 179, 199.

²⁵ Mathilde M. La campagne de Timur en Anatolie (1402). – Bucuresti: Imprimeria Națională, 1942. – 180 p.

²⁶ O'sha asar – P. 13-29, 43, 47.

²⁷ Mustafa Akkuş, İzzetullah Zeki.Timur'un Sarayında Yetişen Tarihçilerin Timur Hakkındaki Görüşlerinin Değerlendirilmesi. – S. 155. // Afyon Kocatepe Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi / Cilt: 20, Sayı: 3, Aralık 2018, 149-163; İsmail Çiftçioglu. Timur'un, fethettiği ülkelerden Maveraiünnehir'de topladığı bazı alimler. // EKEV AKADEMİ DERGİSİ Yıl: 12 Sayı: 37, 2008. – S. 307-320; Neslihan Aksoycuk. Emir Timur, kişisel özellikleri ve askerî dehâsi. // Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi | 10(2) | 2019 | 5 – 13; Ensar Macit. Timurlu devleti'nin askerî teşkilâtı. – Erzurum, 2012. – S. 4, 19, 167; Farishtamo Khomushova. Giyasiddin Handmir'in hayati, eserleri ve tarihçiliği. – Bursa, 2020. S. 23-32; Konuralp Ercilasu. Temür ve devleti hakkındaki araştırmalara genel bir bakış. // 1402 Ankara savaşı uluslararası kongresi (Yıldırım-Timur). Ankara, 9-12 Ekim 2012. Bildiri kitabı. – Ankara, 2014. – S. 697-704; Andican, Ahat. Emir Timur tarih, siyaset, miras. – Istanbul: Selenge Yayınları, 2019. – S. 689-690; Hakan Ö. Timurlu devleti'nde emirlerin rolü. – Ankara, 2020. – S. 3.

²⁸ Карамзин Н.М. История государства Российскаго. – Санктпетербургъ: в типографии Н.Греча, 1819. Т V. – С. 140-141; Григорьев В.В. История монголов от древнейших времен до Тамерлана. – Санктпетербургъ: в

Sovet davri tarixshunosligida esa, A.Y.Yakubovskiy, G.A.Pugachenkova, I.M.Mo‘minov kabi akademiklar o‘z tadqiqotlarida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati hamda temuriylar davri madaniyatini yoritishda XVIII asrda fransuz sharqshunoslari tomonidan yaratilgan asarlarga murojaat etib, ularning tadqiqotlariga o‘zlarining munosabatlarini bildirganlar²⁹.

Mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar. Ushbu yillarda mamlakatimizdagi bir nechta tadqiqotlarda XV–XVIII asrlar mobaynida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini Fransiyada yoritgan sharqshunoslarning asarlari o‘rganildi³⁰. Amir Temur tarixini yurtimiz olimlari tomonidan o‘rganish yangi bosqichga chiqdi. Bu borada U.Uvatov, D.Alimova, D.Abidjanova, A.Saidov, B.Ermatov, D.Rasulova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini tilga olishimiz mumkin³¹. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Vatan tarixini fransuzabon tadqiqotlar misolida o‘rganish bo‘yicha D.Rasulovning dissertatsiyasi muhim ahamiyat ega bo‘lib, mazkur ilmiy ish bo‘lajak tadqiqotlar uchun ham yo‘l ko‘rsatgich vazifasini bajaradi. “Temuriylar davriga oid tadqiqotlar” paragrafida olim, tadqiq etilayotgan mavzu doirasida fransuz sharqshunoslari faoliyati haqida qisqacha ma‘lumot bergan³².

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**XV–XVII asrlar Fransiya tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining yoritilishi**” deb nomlanadi. Uning “**XV–XVI asrlarda Fransiya tarixshunosligida Amir Temur tarixining o‘rganilishi**” nomli birinchi paragrafida fransuz tarixchilari tomonidan yaratilgan temurshunoslikka oid asarlar temuriylar davri manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

типографии Карла Крайя, 1834. – С. 38, 89, 145-146, 153-154; Бартольд В.В. Монгольское нашествие. // Сочинения, Т. 1. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 102; Бартольд В.В. Пособия. // Сочинения, Т. 1. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 108.

²⁹ Якубовский А.Ю., Тревер К.В., Воронец М.Э. История Народов Узбекистана. Т.1. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1950. – С. 453; Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов. // Труды Среднеазиатского государственного университета. Выпуск XXIII, книга 4. – С. 149-150, 159; Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Ёзма манбалар асосида (иккинчи нашр) – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 45-46.

³⁰ Темур ва Улуғбек даври тарихи. / Бош муҳаррир академик А.Аскарлов. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. – Б. 16; Амир Темур жаҳон тарихида. / Масъул муҳаррир Ҳ.Кароматов. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: “Шарқ”, 2001. – Б. 55, 218-219; Амир Темур чет элликлар нигоҳида. / Масъул муҳаррир Лазиз Тангриев. Тошкент: Ғофур Ғуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 12; История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. / Отв., редакторы: Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Ташкент: Фан, 2017. – С. 22, 26.

³¹ Уватов У. Сохибкирон араб муаррихлари нигоҳида. Тошкент: «ШАРҚ», 1997. – Б. 140-141; Абиджанова Д. Маверауннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60–90-х годов XX в. Дисс. канд. Ист. Наук. – Ташкент: ИИ АН Рuz, 2001. – С. 21, 31, 34, 36-37; Эркўзиев А. Ўрта Осиё ва Ғарбий Европа ўртасидаги иқтисодий алоқалар ва савдо йўллари тарихи (XVI – XIX асрнинг биринчи ярми) / Тошкент: «Yangi nashr», 2014. – 168 б.; Алимова Д.А. Очерки историографии государственности Узбекистана. Т. 2. – Ташкент: Издательство «Navro‘z», 2019. – С. 58-60; Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. // Масъул муҳаррир У. Тожионов / – Тошкент: Адолат, 1996. – Б. 24-25, 28-29, 45; Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция / Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр. – Тошкент: «Адолат», 2016. – Б. 243, 252, 257-258, 318; Эрматов Б. Амир Темур Ғарбий Европа адиблари нигоҳида. Тошкент: «Navro‘z», 2019. – Б. 48-50, 78-79, 115, 117, 122-127; Расулова Д.Б. XVII – XX аср бошидаги французабон тадқиқотларда Ўзбекистон тарихи масалалари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Самарқанд: СамДУ, 2019. – Б. 81, 84-85; Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва темурийлар даврида. – Фарғона: “Фарғона” нашриёти, 2019. – Б. 27-28; Бегимкулова Л.М. XV аср бошларида Мовароуннахрда ҳокимият учун кураш (қучлар нисбати ва натижалар таҳлили). – Фарғона: “Classic” нашриёти, 2021. – Б. 6-7.

³² Расулова Д.Б. XVII – XX аср бошидаги французабон тадқиқотларда Ўзбекистон тарихи масалалари. – Б. 84-85.

Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga oid dastlabki tadqiqot marshal Jan II Busiko tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uning "Marshal Busiko amalga oshirgan ishlar" nomli asarining XXXVII bobi Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga bag'ishlangan³³. Shuningdek, tadqiqotdan fransuz marshalining bolalik yillari, Genuyadagi gubernatorlik davri, Usmonli turklar hamda Angliya bilan "Yuz yillik" urishlardagi ishtiroki o'rin olgan.

XVI asr fransuz mualliflari tomonidan "universalizm" g'oyasini targ'ib etish doirasida yaratilgan asarlarda ham Amir Temur tarixiga oid fikr va mulohazalar uchraydi. Jan Bodening "Respublikaning olti kitobi" nomli asarida³⁴ o'rta asrlardagi zolimlik masalasini yoritishda Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlariga murojaat etgan. Muallifning fikricha, Usmonli turklar tomonidan Konstantinopolni qamal etilishi ko'plab xalqlarning jabrlanishiga sabab bo'lgan³⁵. Amir Temur Sulton Boyazidning ushbu zolimligini qoralab, unga qarshi yurish qilishga qaror qilgan. Natijada, "Anqara jangi"da Usmonli turklar hukmdori mag'lub etilib, asirga olingan. Amir Temur tomonidan temir qafasda saqlangan Sulton Boyazid zanjirband holatda o'ldirilgani Jan Boden tomonidan bayon etilgan³⁶. Muallif Sulton Boyazid sud qilinib, xuddi qotil yoki o'g'ri kabi jazolanishi kerakligini ta'kidlagan³⁷.

Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini XVI asrda izchil o'rgangan sharqshunoslardan biri Lui Le Ruadir. Olim o'zining "Olamdagi narsalarning turtiligi va o'zgaruvchilik to'g'risida" nomli asarida moziyning buyuk hukmdorlari qatorida Amir Temur tarixiga ham to'xtalib o'tgan. Unda qadimgi hamda o'rta asrlarda yashab, o'z boshqaruvi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan dunyo yetkachilari faoliyati Amir Temurning davlat tuzimi bilan qiyosiy tarzda tadqiq etilib, bayon etilgan. Masalan, Amir Temurni harbiy mahorat hamda aql-zakovatda, obro'-e'tibor va ulug'vorlikda Yevropa, Osiyo va Afrikaning barcha shahzodalaridan, hatto, Usmonli turklardan ham ustun bo'lgan deb ta'rif berilishiga o'z munosabatini bildirgan Lui Le Rua, Movarounnahr hukmdoriga "Buyuk" deb nom berilganligi bejiz emasligini qayd etgan³⁸.

Lui Le Rua ushbu asarining o'n birinchi bo'limdagi boblaridan biriga "Amir Temurni Nin, Kir, Doro, Aleksandr Makedonskiy, Arshak, Gannibal, Yuliy Sezar, Konstantin, Atilla, Buyuk Karl bilan qiyoslash" deb nomlagan³⁹. Dastlab, Bobil podshosi Nin va Amir Temur faoliyatini qiyosiy tahlil etgan muallif, Movarounnahrning davlatchilik faoliyatiga yuqori baho bergan⁴⁰. Moziyning buyuk hukmdorlarini madaniy va diniy sohalaridagi ishtirokini o'rgangan Lui Le Rua, Amir Temurni Atilla, Buyuk Karl kabi ibodatxonalarining buzulishiga yo'l qo'ymanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, muallif Amir Temurning Arabistonga

³³ Contenant les Mémoires du bon Messiere Jean Le Maingre, dit Boucicaud, Maréchal de France. – P. 162-165.

³⁴ Bodin I. Les Six livres de la République. – P. 253-263.

³⁵ O'sha asar. – P. 255.

³⁶ O'sha joyda.

³⁷ O'sha joyda.

³⁸ Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l'univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuilité, & memoire humaine iusques à present. – P. 94-a.

³⁹ O'sha asar. – P. 108-b.

⁴⁰ O'sha joyda.

yurish qilmaganligiga sabab sifatida payg‘ambari tug‘ilgan yurt ekanligini keltirgan⁴¹.

Bobning **“Bartelemi d’Erbeloning “Sharq kutubxonasi” asarida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining yoritilishi**” deb nomlangan ikkinchi paragrafida esa, fransuz sharqshunosi tomonidan Amir Temur tarixiga oid bildirilgan mulohazalar tahlil etilgan. Masalan, muallif Amir Temurning to‘liq nomini Sulton Kamron Amir Qutbiddin Temur Ko‘ragon Sohibqiron shaklida keltirgan⁴². Lekin temuriylar davri manbalarida Amir Temurni aynan shunday nom bilan qayd etilmagani tadqiqotda asoslandi. Shuningdek, muallif Amir Temur Sohibqiron unvoni bilan atalganligini, bu so‘z “Buyuk birlashma boshqaruvchisi” degan ma‘noni bildirishiga to‘xtalib o‘tib, ushbu so‘zning qudrati haqidagi tushunchalar sharq munajjimlari ta‘limotlaridan kelib chiqqanligiga e‘tibor qiladi⁴³. Aslida esa Sohibqiron so‘zi “Buyuk birlashma boshqaruvchisi” ma‘nosiga ega emas. Mazkur masala haqida muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy ham o‘z asari orqali ma‘lumot berib o‘tgan⁴⁴. Muallif, Amir Temurning davlatchilik faoliyatini yoritishni Amir Qazag‘anbek ustidan qozonilgan g‘alaba bilan boshlangan deb xato fikr bildirish orqali boshlagan⁴⁵. Amir Qazag‘anbekni Amir Temurga mag‘lub bo‘lishi masalasida d’Erbeloni manbalardagi Qutlug‘ Temur ismidagi “Temur” so‘zi chalg‘itgan bo‘lishi mumkin. Aslida Amir Qazag‘anbek faoliyati davomida hech kimdan mag‘lubiyatga uchramagan bo‘lib, ov paytida kuyovi Qutlug‘ Temur tomonidan o‘ldirilgan edi⁴⁶. Shuningdek, d’Erbelo Amir Temur davridagi “valiaxd” masalasiga ham o‘z munosabatini bildirgan. Sharqshunosning ta‘kidlashicha, 1376-yilda Jahongir Mirzo vafotidan so‘ng Amir Temur valiaxd etib Shohrux Mirzoni tayinlagan. Fransuz sharqshunosining “valiaxd” mavzusidagi mazkur xulosasiga muarrix Natanziy ma‘lumotlari asos bo‘lgan⁴⁷. Chunki, temuriylar davri tarixchilaridan faqatgina Natanziy, Shohrux Mirzo Amir Temur davlatining merosxo‘ri bo‘lganligini bayon etgan. Aksincha, Sharafiddin Ali Yazdiy ushbu masalada Pirmuhammad Mirzo nomini qayd etgan⁴⁸.

D’Erbelo, Amir Temurning harbiy sohadagi faoliyatiga ham to‘xtalib o‘tgan. “Uch yillik” yurish haqida juda qisqa ma‘lumot bergan muallif, Amir Temur tomonidan Fors, Iroq hamda Ozarbayjon kabi hududlar egallanib, Shirvon shahzodasi Amir Shayx Ibrohim jangsiz taslim bo‘lganligini bayon etgan⁴⁹.

Muallif, Amir Temurning “Besh yillik” yurishlari haqida ham ma‘lumot berib o‘tib, ushbu yurishning boshlanish sabablariga o‘z munosabatini bildirgan. Fransuz

⁴¹ Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l’univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuilité, & memoire humaine iusques à present. – P. 109-a.

⁴² Barthélemy d’Herbelot de Molainville. Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal. – P. 877.

⁴³ O‘sha asar. – P. 878.

⁴⁴ Ўяздий, Шарафуддин Али. Зафарнома. / Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А. Аҳмад ва Ҳ. Бобобеков, – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 13 (keyingi o‘rinlarda – Ўяздий. Зафарнома.).

⁴⁵ Barthélemy d’Herbelot de Molainville. Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal. – P. 878.

⁴⁶ Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 28 (keyingi o‘rinlarda – Шомий. Зафарнома.); Ўяздий. Зафарнома. – Б. 18 Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Фулом Каримий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 50 (keyingi o‘rinlarda – Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний.).

⁴⁷ Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. – Б. 185, 190.

⁴⁸ Ўяздий. Зафарнома. – Б. 296.

⁴⁹ Barthélemy d’Herbelot de Molainville. Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal. – P. 879.

sharqshunosining fikricha, Amir Temur To'xtamishxon masalasi bilan band bo'lgan davrda, fors senyorlari Movarounnahr amirining uzoqdaligidan foydalanib, hukumatga qarshi ish boshlashgan⁵⁰. D'Erbelo mazkur masalani Sharafiddin Ali Yazdiy asariga tayangan tarzda yoritgan⁵¹. Chunki, 1392-yil voqelari haqida so'z yuritgan Nizomiddin Shomiy hamda Muiniddin Natanziy kabi muarrixlar Amir Temurning "Besh yillik" yurishiga sabab bo'lgan omillar to'g'risida ma'lumotlar qayd etmaganlar⁵².

D'Erbelo Amir Temurning "Yetti yillik" yurishlari masalasi haqida so'z yuritib, Sohibqiron tomonidan avval Gruziya, so'ngra Sivos, Malatiya hududlari egallanib, Suriya tomon yurish qilinganligini ta'kidlaydi⁵³. Muallifning fikricha, Amir Temur mazkur davrdagi siyosiy vaziyatdan unumli foydalanib Shom yurishini amalga oshirgan⁵⁴. Darhaqiqat, d'Erbelo Amir Temurning "Uchlar ittifoqi"⁵⁵ga qarshi tuzgan rejasiga temuriylar davri manbalari asosida yoritgani e'tiborga molikdir. Muallif, "Yetti yillik" yurishlarning eng muhim voqeasi bo'lgan Amir Temur va Sulton Boyazid qarama-qarshiliklariga ham to'xtalib o'tgan. Garchi, muallif ikki hukmdor o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga o'z munosabatini bildirmagan bo'lsa-da, Amir Temur tomonidan Kamox, Horuk qal'alari egallangach, navbat Qaysariya hamda Anqara hududlariga kelganligini bayon etgan⁵⁶. "Anqara jangi"ni qisqa tarzda yoritgan d'Erbelo, Sulton Boyazid Sulton Mahmudxonga mag'lubiyatga uchrab asirga tushganligini qayd etgan⁵⁷. Mazkur voqealarni bayon etishda fransuz sharqshunosi asosan Sharafiddin Ali Yazdiy⁵⁸ning ma'lumotlariga tayangan. D'Erbelo Sulton Boyazidning asirlikdagi hayoti bilan bog'liq XV–XVII asrlar davomida G'arbiy Yevropada keng tarqalgan "Temir qafas" mavzusidagi afsonaga ham o'z munosabatini bildirgan dastlabki fransuz sharqshunosidir. Muallifning ta'kidlashicha, Amir Temur Sulton Boyazidga yuksak darajada iltifot ko'rsatgan⁵⁹. Lekin, Leunclavius (1533–1594) tomonidan tarjima qilingan Usmonli yilnomasi mavjud bo'lib, tadqiqotda "Temir qafas" haqidagi rivoyat mavjud⁶⁰. Darhaqiqat, nemis sharqshunosi o'zining "Musulmon turklar tarixi, ularning yodgorliklaridan ko'chirilgan" nomli asarida, Amir Temur tomonidan Sulton Boyazidning temir qafasga zanjirband etilganligini hikoya qilingan⁶¹. Lekin, d'Erbelo nemis tarixchisining fikrini rad etib, mazkur voqea temuriylar davri manbalarida qayd etilmaganligini ta'kidlaydi⁶².

Tadqiqotning **"XVIII asr Fransiya tarixshunosligida Amir Temur siymosining yoritilishi"** deb nomlanuvchi uchinchi bobining birinchi paragrafidan

⁵⁰ Barthélemy d'Herbelot de Molainville. *Bibliothèque Orientale ou dictionnaire universel*. – P. 880.

⁵¹ Ўздий. Зафарнома. – Б. 143.

⁵² Шомий. Зафарнома. – Б. 168; Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. – Б. 151-152.

⁵³ Barthélemy d'Herbelot de Molainville. *Bibliothèque Orientale ou dictionnaire universel*. – P. 881.

⁵⁴ O'sha joyda.

⁵⁵ Uchlar Ittifoqi – 1394-yili Damashqda Oltin O'rda, Misr Sultonligi hamda Usmoniylar imperiyasi hukmdorlari tomonidan Amir Temurga qarshi tuzilgan ittifoq.

⁵⁶ Barthélemy d'Herbelot de Molainville. *Bibliothèque Orientale ou dictionnaire universel*. – P. 882.

⁵⁷ O'sha joyda.

⁵⁸ Ўздий. Зафарнома. – Б. 255-258.

⁵⁹ Barthélemy d'Herbelot de Molainville. *Bibliothèque Orientale ou dictionnaire universel*. – P. 882.

⁶⁰ O'sha joyda.

⁶¹ Leunclavius J. *Historiae Musulmanae Turcorum, de monumentis ipsorum exscriptae, libri XVIII*. – Francofurti: Apud heredes Andrea Wecheli, 1591. – P. 366.

⁶² Barthélemy d'Herbelot de Molainville. *Bibliothèque Orientale ou dictionnaire universel*. – P. 882.

yirik fransuz tarixchilari Marga de Tilli va Jozef De Gin asarlarining fransuz temurshunosligi rivojlanishidagi o‘rni tahlil etilgan.

Jan-Baptist Marga de Tilli Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini ilmiy talqin etgan dastlabki tadqiqotchi bo‘lib, 1739-yilda “Mo‘g‘ullar imperatori va Osiyoni zabt etgan Tamerlanning tarixi” nomli ikki qismdan iborat asarini chop etgan⁶³. Marga de Tilli mazkur asarining kirish qismida Amir Temur ismini tadqiqoti davomida “Tamerlan” nomi bilan qayd etganligi bu nom ongda ajoyib g‘oyalarni, qiziqish uyg‘otadigan va e‘tiborni jalb qiladigan mashhur ismlardan biridir, deya izohlagan⁶⁴.

Fransuz sharqshunosi Amir Temurning siyosiy jarayonlardagi dastlabki faoliyati borasida juda qiziq fikrlarni bildirgan. 1360-yilda Tug‘luq Temurxon Movarounnahrda birinchi marotaba bostirib kirganda Amir Temur mo‘g‘ul xoni huzuriga borishni ma‘qul ko‘rgan. Birinchidan, Amir Temur o‘z xalqining xavfsizligini o‘ylagan bo‘lsa, ikkinchidan ushbu harakati orqali Kesh boshqaruvini qo‘lgan kiritishga intilgan⁶⁵. Tug‘luq Temurxonga bo‘ysunishdan bosh tortgan Hoji Barlosni himoya qilish evaziga Amir Temur mo‘g‘ul xoni huzurida uning ishonchini qozongan. Amir Temurning mazkur diplomatiyasini Marga de Tilli “Himoyachi va do‘st” tizimida bo‘lganligini ta‘kidlaydi⁶⁶.

Muallif, mazkur asarining uchinchi bo‘limida, Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasida “Qunduzcha jangi” hamda “Terek jangi”da sodir bo‘lgan voqealarni davomiy ketma-ketlikda yoritib, xatolikka yo‘l qo‘ygan. Dastlab, Amir Temurning 1391-yildagi To‘xtamishxonga qarshi yurishini manbalar asosida ijobiy bayon etgan muallif⁶⁷, “Qunduzcha jangi”dan so‘ng, mag‘lubiyatga uchragan Oltin O‘rda hukmdori bilan sodir bo‘lgan voqealarni, 1395-yil lavhalari bilan qorishtirib yuborgan⁶⁸. Chunki, sharqshunos “Qunduzcha jangi”dan so‘ng sodir bo‘lgan jarayonlarni 1395-yil voqealarning davomi sifatida tushungan. Shu bois, ikki hukmdor o‘rtasidagi kurashni bitta to‘qnashuv davomiyligida yoritib, “Terek jangi” va undan keyin davom etgan 1395-yil voqealariga to‘xtalib o‘tmagan.

Fransiyada Amir Temur tarixini chuqur o‘rgangan sharqshunoslardan biri Jozef De Gindir. Sharqshunos o‘zining “Xunlar, turklar va mog‘ullarning umumiy tarixi”⁶⁹ nomli 5 jilddan iborat asarida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini mahalliy manbalar hamda fransuz orientalistlari asarlaridan foydalangan tarzda yoritgan.

Muallif, XVII bo‘limning “Chig‘atoy mo‘g‘ullari” nomli II bobida Amir Husayn va Amir Temur tomonidan Qobulshohning xon etib saylanishi masalasiga o‘z munosabatini bildirgan. Jozef De Ginning fikricha, 1364-yilda Toshariq bo‘yidagi jangda Amir Husayn va Amir Temur boshchiligidagi qo‘shinning Ilyos Xojaxon ustidan g‘alaba qozonishi, mahalliy amir va beklarning o‘z hududlarida

⁶³ Margat J.B. Histoire de Tamerlan, empereur des Mogols et conquérant de l’Asie. – Paris: Chez Hippolite-Louis Guerin, 1739. – part I 298 p.; part II 392 p.

⁶⁴ Margat J.B. Preface // Histoire de Tamerlan, empereur des Mogols et conquérant de l’Asie. – P. XVII-XVIII.

⁶⁵ Margat J.B. Histoire de Tamerlan, empereur des Mogols et conquérant de l’Asie. Part I. – P. 16-17.

⁶⁶ O‘sha asar. – P. 18.

⁶⁷ O‘sha asar. – P. 234-281.

⁶⁸ O‘sha asar. – P. 281.

⁶⁹ De Guignes J. Historie Générale des Huns, des Turcs, des Mogols et des autres Tartares Occidental avant et depuis Jesus Christ jusqu’a à present. – Paris: Desaint et Saillant, 1756-1758. Vol. 4.

yanada mustaqil bo'lish istagini kuchaytirgan. Movarounnahrda siyosiy tarqoqlikni qaytadan avj olishini istamagan ikki amir, zudlik bilan Qobulshoxni xon etib tayinlashgan.

Jozef De Gin mazkur asarining 4-qism 20-bo'limda Amir Temurning Hindiston yurishiga ham to'xtalib o'tib, ayrim bahs-munozaraga sabab bo'ladigan ma'lumotni yozib qoldirdi. Muallifning fikricha, Amir Temur tomonidan nabirasi Pir Muhammad Jahongirga Qunduz, Bag'lon, Qobul, G'azna va Qandahor kabi hududlar boshqaruvi taqdim etilgach, temuriyzoda shahzoda uchun Hindistonga yurish qilish vazifasi ham yuklatilgan edi⁷⁰. Mazkur viloyatlarning Hindiston bilan chegaradosh bo'lganligi, ushbu yurishning asosiy sabablaridan biri bo'lgan⁷¹. Garchi, fransuz sharqshunosi mazkur masalani Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari asosida bayon etgan bo'lsa-da, Pir Muhammad Jahongir uchun Hindistonga harakatlanishi yuzasidan ko'rsatma berilganligi to'g'risida ma'lumotni Yazdiy "Zafarnoma"sining fransuz tiliga tarjima etilgan nashridan foydalangan tarzda qayd etgan⁷². Chunki, Muhammad Ali tomonidan eski o'zbek tiliga ko'chirilgan nusxasida faqatgina temuriyzoda shahzodaning Sind daryosidan o'tib Mo'ltinni qamal etganligi haqidagi voqealar o'rin olgan⁷³.

So'nggi bobning ikkinchi paragrafi "Mari Arue Volter va Lui-Matie Langle talqinida Amir Temur" deb nomlanib, unda ikki fransuz sharqshunoslari asarlarida Amir Temur tarixining o'rganilishi tadqiq qilingan.

Ma'rifatparvar Mari Arue Volter "Millatlarning ruhi va ahloqi, moziyning Buyuk Karldan Lyudovik XIII gacha bo'lgan asosiy tarix faktlar haqidagi insho" nomli asarining ikkinchi jild, 88-bobi Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga bag'ishlangan⁷⁴. An'anaga ko'ra Temurni "Tamerlan" deb atashni ma'qul ko'rgan muallif, mazkur nom Amir Temurga eng yaxshi tarixchilar tomonidan berilganligini ta'kidlaydi⁷⁵. Volterning fikricha, garchi Amir Temur oddiy oila vakili bo'lsa-da, lekin, o'zining muvaffaqiyatlari tufayli Aleksandr Makedonsiy hamda Chingizxon kabi ulkan hududlarni egallaganligini ta'kidlaydi⁷⁶.

Volter mazkur asarida Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlariga ham to'xtalib o'tgan. "Anqari jangi"da Sulton Boyazid Movarounnahr xoni Mahmudxon tomonidan qo'lga olinib Amir Temur huzuriga olib kelingan. Lekin, ayrim G'arbiy Yevropa adabiyotlarida asirlikdagi Sulton Boyazidga nisbatan Amir Temur shafqatsizlarcha munosabatda bo'lganligi bayon etilgan. Mazkur jarayonni "Qafas haqidagi ertak va sultonlarning turmush qurishiga xalaqit beradigan sabab" nomli kichik sarlavha ostida yoritgan Volter, ushbu masalani turk hamda fors-arab manbalari kesimida tahlil etgan. Muallifning ta'kidlashicha, Amir Temur tarixini

⁷⁰ De Guignes J. *Historie Générale des Huns, des Turcs, des Mogols et des autres Tartares Occidental avant et depuis Jesus Christ jusqu'à à present.* – Paris: Desaint et Saillant, 1756-1758. Vol. 4. – P. 41.

⁷¹ O'sha joyda.

⁷² Cherefidin Ali Yezdi. *L'histoire de Timur – bec, connu sous le nom du Grand Tamerlan, empereur des mogols et tartars.* Traduite en français M. François Petis de la Croix. – Delf: Reinier Boitet, 1723. Vol. 3. – P. 7.

⁷³ Ўздий. *Зафарнома.* – Б. 191.

⁷⁴ M^R. de Voltaire. *Essai sur les moeurs et l'esprit des nations et sur les principaux faits de l'histoire depuis Charlemagne jusqu'à Luis XIII.* 1785. – P. 418-426.

⁷⁵ O'sha asar. – P. 418.

⁷⁶ O'sha asar. – P. 419.

yozgan fors va arab mualliflarining hech biri Sul-ton Boyazid temir qafasda saqlanganligi haqida soʻz yuritmagan, aksincha, unga yuqori hurmat bilan munosabatda boʻlinganligini bayon etishgan⁷⁷. Volterning fikricha, ayrim turk tarixchilari Amir Temurni butun insoniyatga salbiy shaxs sifatida gavdalantirishni maqsad etgan boʻlib, ushbu jarayonni yoritishda ular yunon tarixchilari asarlaridan koʻchirganliklari eng katta xatolaridan biri boʻlgan⁷⁸. Bizningcha, Volter tomonidan yuqorida nomi qayd etilmagan yunon tarixchisi Laonik Xalkondil boʻlib, u oʻzining “Yunon imperiyasining qulashi”⁷⁹ nomli asarida Sul-ton Boyazidni temir qafasda saqlanganligini qayd etgan. Shuningdek, Volter ayrim arab tarixchilari ham Amir Temurni Sul-ton Boyazid oilasining ayollariga nisbatan salbiy munosabatda boʻlganligiga toʻxtalib oʻtgan. “Arab mualliflarining taʼkidlashicha, – deb yozadi Volter, – ziyofat vaqtida Bajazetning yarim yalangʻoch xotini Tamerlanga ichimlik quyib berib hizmat qilgan; bu esa, Turk sul-tonlarining uylanmaslikka ahd qilganliklari toʻgʻrisidagi mashhur afsonaning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Buning uydirma ekanligini Volter Amurat II (1404–1453), Mahmud II (1432–1481) misolida koʻrsatib bergan⁸⁰. Yuqorida Volter tomonidan taʼkidlangan arab tarixchisi Ahmad Ibn Arabshoh boʻlib, muarrix oʻzining “Ajoyib al-maqdur, fi tarixi Taymur” asarida Amir Temurning Sul-ton Boyaziddan qasd olganligi toʻgʻrisidagi voqeani bayon etgan edi⁸¹. Ammo, Usmoniy sul-tonlari hayoti yoritilgan adabiyotlarda ham ularning keyingi davrlarda turmush qurganliklari qayd etilgan⁸². Shu bois, fransuz maʼrifatparvari Amir Temur va Sul-ton Boyazid oʻrtasida sodir boʻlgan voqealarni notoʻgʻri talqin etgan mualliflarning qarashlariga ilmiy dalil keltirish orqali, mazkur masalaga manbalar asosida yondashish zarurligiga chaqirgan. Shuningdek, muallif Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini yoritishda ayrim bahs-munozaraga sabab boʻluvchi maʼlumotlarni qayd etgan. Masalan, Volterning fikricha, Amir Temur 1406-yilda vafot etgan boʻlib, hayoti davomida Chingizxon kabi koʻplab shaharlarni vayron qilib, obodonchilik ishlari bilan shugʻullanmagan⁸³. Ikki hukmdordan farqli ravishda Aleksandr Makedonskiy Aleksandriya shahrini qurdirib, Samarqandni qayta tiklab, hatto Hindistonda ham shaharlar qurdirganligi, muallif tomonidan taʼkidlangan⁸⁴. Lekin, temuriylar davri manbalarida Amir Temur faoliyati davomida Samarqand, Xorazm, Bagʻdod, Baylaqon kabi shaharlarni qayta tiklab, koʻplab hududlarda obodonchilik ishlari bilan shugʻullangani qayd etilgan⁸⁵.

⁷⁷ M^R. de Voltaire. Essai sur les mœurs et l’esprit des nations et sur les principaux faits de l’histoire depuis Charlemagne jusqu’a Luis XIII. 1785. – P. 421.

⁷⁸ Oʻsha joyda.

⁷⁹ Chalcocondyles L. Histoire de la decadence de l’empire Grec. – Roven: Chez Jean Berthelin, 1660. – P. 28.

⁸⁰ M^R. de Voltaire. Essai sur les mœurs et l’esprit des nations et sur les principaux faits de l’histoire depuis Charlemagne jusqu’a Luis XIII. 1785. P. – 421.

⁸¹ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари / Араб тилидан тарж. ва изоҳларни, сўз боши У.Уватов тайёрлаган; Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. К. I. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – Б. 276 (keyingi oʻrinlarda – Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур.).

⁸² https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D1%83%D1%80%D0%B0%D0%B4_II

⁸³ M^R. de Voltaire. Essai sur les mœurs et l’esprit des nations et sur les principaux faits de l’histoire depuis Charlemagne jusqu’a Luis XIII. 1785– P. 423.

⁸⁴ Oʻsha asar. – P. 423-424.

⁸⁵ Шомий. Зафарнома. – Б. 358, 371; Ўаздий. Зафарнома. – Б. 273, 278; Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. / Пер. предис. примеч. и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – С. 123 (keyingi oʻrinlarda – Хавафи. Муджмал-и Фасихи.); Хондамир Гийёсиддин ибн Хумомиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, мукаддима муаллифлари: Жалил Ҳазраткулов, Исмоил Бекжонов. Масъул

L.Langlening “Temurning hayoti” deb nomlangan tadqiqoti sharqshunos tomonidan tarjima etilgan “Temur tuzuklari” asarining kirish qismidan so‘ng o‘rin olgan⁸⁶. Muallif, Amir Temurning davlatchilik sohasidagi faoliyatini manbalar asosida chuqur tahlil qilib, ilmiy ahamiyatga molik fikrlarni bildirgan. Masalan, 1360-yilda Tug‘luq Temurxonning Movarounnahrni tark etishi Amir Temurning faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan⁸⁷. Mazkur vaziyatda Amir Husaynning Amir Qazag‘anbek mulkiga egalik qilishga urinishlari Movarounnahrda siyosiy vaziyatni izdan chiqargan. Muallif mazkur parokandalikni ana shu davrdagi “Ikkinchi fuqarolar urushi” deb qayd etgan⁸⁸.

Muallif, Amir Temurning davlat boshqaruvida egalik qilgan unvonlari haqida ham ma‘lumot berib o‘tgan. Unga ko‘ra, Amir Temur hech qachon “xon” unvoni olmagan bo‘lib, ushbu darajani Chingizxon avlodlariga taqdim etgan⁸⁹. Amir Husayn vafotidan so‘ng Chig‘atoy imperiyasida mutlaq hukmronlikni qo‘lgan olgan Amir Temurga “Asr qahramoni” ya‘ni “Sohibqiron” deb nom berilgan⁹⁰.

Fransuz sharqshunosi Amir Temurning 1395-yildagi yurishlari mobaynida Moskvaga hujum qilmaganligini ta‘kidlaydi. Amir Temur Moskvaga xavf solish bilan cheklanib, Ryazan knyazligi chegarasidan mazkur hududni tark etgan⁹¹. Bunga sabab sifatida L.Langle Amir Temurning qo‘shin soni rus adabiyotlarida 400000 nafar atrofida bo‘lib, ulkan qo‘shinni bir joyda olib qolish murakkablik tug‘dirgan. Shuningdek, lashkardagi otlar uchun yaylovlar zarurligi, Amir Temurni ma‘lum bir joyda to‘xtab turishi uchun noqulay vaziyat yaratgan⁹². O‘z qo‘shinining suvoriy qismlari ta‘minotini o‘ylagan Amir Temur Moskvaga hujum qilish rejasidan voz kechgan. Ammo, ayrim adabiyotlarda Amir Temur Moskvani egallay olmaganligi yoki vayron etganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, mazkur masalani atroflicha tahlil etish zarurligi L.Langle tomonidan ta‘kidlangan⁹³. Muallifning fikricha, g‘arb hududlari geografiyasi bo‘yicha sharq tarixchilarining bilimlari yetarli darajada bo‘lmagan. Masalan, muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy Moskvaning geografik joylashuvini yaxshi bilmaganligi, Amir Temurni ushbu hududni zabt etgan, deb qayd etishiga sabab bo‘lgan⁹⁴.

Shuningdek, L. Langle Amir Temurning “Yetti yillik” yurishlariga to‘xtalib o‘tgan. Muallifning fikricha, Amir Temurning uzoq vaqt yo‘qligidan foydalangan Iroq hukmdori Sulton Ahmad Jaloyir o‘z hududlarini kengaytirishga erishgan⁹⁵. Mironshoh Mirzoning beparvoligi natijasida Eron hamda Ozarbayjonda yuzaga kelgan yangi tartibsizliklar Amir Temurning mazkur yurishiga sabab bo‘lgan⁹⁶. 1400-yilda Vizantiya imperatori Manuel II Paleologning elchilari Amir Temur huzuriga tashrif buyurishgan. Ikki o‘rtadagi muloqot davomida

муҳаррир Ашраф Аҳмедов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 122, 204, 230 (keyingi o‘rinlarda – Хондамир. Ҳабиб ус-сийар...).

⁸⁶ Langlès L. Vie de Timour. – P. 33-122.

⁸⁷ O‘sha asar. – P. 41.

⁸⁸ O‘sha joyda.

⁸⁹ O‘sha asar. – P. 44.

⁹⁰ O‘sha joyda.

⁹¹ O‘sha asar. – P. 65.

⁹² O‘sha asar. – P. 65.

⁹³ O‘sha asar. – P. 65-66.

⁹⁴ O‘sha asar. – P. 67.

⁹⁵ O‘sha asar. – P. 77.

⁹⁶ O‘sha joyda.

konstantinopolliklar o'z hukmdorlarini Amir Temurning vassali deb tan olishi hamda Sulton Boyazidga qarshi kurashish uchun yordam so'raganligini ta'kidlaganlar⁹⁷. L.Langlening ta'kidlashicha, Amir Temurning g'arbliklar bilan bo'lgan ushbu uchrashuvi Kichik Osiyo uchun yurishning ikkinchi omilidir⁹⁸.

XULOSA

1. XV–XVIII asrlarda Fransiyada Amir Temur tarixining o'rganilishi to'rt bosqichda amalga oshgan. Birinchi bosqich XIV asr oxiri – XV asr boshlarini o'z ichiga olgan bo'lib, unga bir nechta omillar ta'sir etgan. Usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim tomonidan birlashgan Yevropa qo'shinlarning tor-mor etilishi natijasida unga qarshi Sharqdan ittifoqchi izlash masalasi Fransiyada Amir Temur faoliyatini o'rganishga sabab bo'lgan dastlabki hodisadir.

2. Ikkinchi bosqich XVI asrni o'z ichiga oladi. Bu davrda Fransiyani diniy urushlar qamrab olgan bo'lib, fransuz jamiyati tolerantlik hamda markazlashgan davlat tartibotiga muhtoj edi. Fransiya va Usmonli turklar davlati o'rtasidagi aloqalarning mazkur davrda qayta tiklanishi, fransuz elchilari uchun sharq davlatlari tarixini o'rganishni taqozo etdi. Fransiya hukumatida diniy nizolarni bartaraf etish istagi Amir Temurning diniy sohadagi faoliyatini o'rganishni rag'batlantirgan. Shuningdek, markazlashgan davlat tartibotini kuchaytirish maqsadi ham fransuz qirollarida Amir Temur tarixiga qiziqishni orttirgan. Fransuz qirollarining cherkov ta'siridan holi, mustaqil davlatni boshqarishga intilishlari tarixshunoslardan moziyning buyuk hukmdorlari faoliyatini tadqiq etishni talab etgan. Natijada, Fransiyada Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Atilla, Buyuk Karl, Konstantin I hamda Amir Temur kabi hukmdorlar hayoti va davlatchilik boshqaruvi qiyosiy tahlil etilgan ko'plab asarlar chop etildi.

3. Uchinchi bosqich XVII va XVIII asrning boshlarini o'z ichiga oladi. Mazkur davrda Fransiyada mutlaq monarxiya o'rnatilib, o'z taraqqiyotining cho'qqisiga chiqdi. Ushbu jarayonda Sharqning yirik imperiyalari tarixini o'rganish sharqshunoslikning asosiy masalasiga aylanib, unga davlat darajasida e'tibor qaratildi. Qolaversa, mustamlakalar uchun kurash masalasi ham fransuz qirollarida qudratli armiya va yengilmas sarkardalarga ega bo'lish ehtiyojini tug'dirdi. Shu jihatdan ham senzura tartiboti o'rnatilgan fransuz jamiyatida Amir Temur tarixini o'rganish cheklanmasdan, aksincha, rag'batlantirildi. Bu bosqichning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, fransuz sharqshunoslari Amir Temur haqida turli asarlar yaratishdan tashqari, uning hayotiga oid manbalarni tarjima qilishga ham kirishdilar. Manbashunoslikda erishilgan bu yutuqlar Fransiyada temurshunoslikning keyingi tarraqqiyotida muhim ro'l o'ynadi.

4. To'rtinchi bosqich XVIII asrni o'z ichiga olgan bo'lib, fransuz ma'rifatparvarligining ta'siri bilan xarakterlanadi. Fransuz ma'rifatparvarligida insoniyatning yagona tarixini yaratishga intilish kuchli edi. Ular jahon sivilizatsiyasiga muhim hissa qo'shgan barcha xalqlar, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davri taraqqiyotini chuqur

⁹⁷ Langlès L. Vie de Timour. – P. 79-80.

⁹⁸ O'sha joyda.

tahlil etishga harakat qilganlar. Bu davrda fransuz sharqshunosligi manbaviy jihatdan kengayib bordi. Bunda sharq tillarini o'rgangan fransuz harbiylarining Usmonlilar saltanati, Fors mintaqasi va Hindistonda olib borilgan samarali faoliyati natijasida ko'plab tarixiy manbalarning qo'lga kiritilishi ham ijobiy ta'sir etdi. Natijada, mazkur davrda Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari va "Temur tuzuklari" fransuz tiliga tarjima qilindi.

5. Muammoning tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, XV–XVIII asrlar fransuz tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi yaxlit, yagona tadqiqot mavzusi sifatida kompleks o'rganilmagan. Mazkur ilmiy muammoning o'rganilishi jahon tarixshunosligida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi genezisini anglab yetishda muhim o'rin tutadi.

6. XIV asr oxiridan to XVI asrni ham o'z ichiga qamragan katta bir davrda Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini o'rganish tarix fanining bir yo'nalishi sifatida shakllandi hamda rivojlana boshladi. Lekin, mazkur davrda fransuz tarixchilari sharq manbalari bilan yaxshi tanish bo'lmaganliklari tufayli, o'z asarlarida Amir Temur tarixiga oid Vizantiya va turk solnomalaridagi noto'g'ri ma'lumotlarga tayanishga majbur bo'ldilar. Bu esa, ularning asarlarida ilmiy asoslanmagan fikr va xulosalar paydo bo'lishiga olib keldi.

7. XVI asr so'ngigiga kelib Fransiyaning Yaqin Sharqda yetakchilikni qo'lga olishga bo'lgan urinishlari mamlakat olimlarining mazkur mintaqaga bo'ylab xizmat safarlariga yuborilishiga sabab bo'ldi. Bunda eskpeditsiya a'zolariga Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat va ushbu mintaqaning tarixi haqidagi ma'lumotlarni to'plash yuklatilgan bo'lib, mazkur missiya davomida fransuz ruhoniysi Jan du Bek Amir Temur tarixiga oid ayrim asarlarni ham qo'lga kiritgan. Yaqin Sharq mintaqasidagi hududlarni boshqargan hukmdorlar tarixini o'rganishga bo'lgan intilishlar XVI asr so'ngigida Amir Temur faoliyatini ham tadqiq etish istagini keltirib chiqardi. Bu esa mazkur asr yakunida Amir Temur nomi qayd etilgan dastlabki asarning chop etilishiga sabab bo'ldi.

8. XVII asrning birinchi yarmida Fransiyada qirollarning mutlaq monarxiya tartibotini o'rnatishga bo'lgan urinishlari, moziyning buyuk hukmdorlari qatorida Amir Temurning davlatchilik faoliyatini ham ilmiy jihatdan o'rganish imkonini yaratdi. XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiyaning Yaqin Sharq mintaqasi va Shimoliy Afrika mintaqalaridagi hududlarni egallashga bo'lgan urinishlari mamlakatda sharqshunos tarjimonlarga bo'lgan talabni oshirdi. Natijada qirol Lyudovik XIV davridan boshlab sharqshunoslik alohida sohaga aylanib, Fransiyada orientalistika maktablari ochildi. Bu esa mazkur davrdan boshlab temuriylar davri manbalarining fransuz tiliga tarjima etilishiga zamin yaratdi.

9. XVII asrda G'arbiy Yevropada temuriylar davriga oid manbalar deyarli g'arb tillariga tarjima etilmagan edi. Bartelemi d'Erbelo Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini o'rganishga qo'shgan ulkan hissasi keyingi davrlarda g'arb temurshunosligida Sohobqiron tarixini tarixshunoslik yo'nalishida ham tadqiq etilishiga asos bo'ldi.

10. XVIII asrning birinchi yarmidagi tadqiqotlarda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini o'rganish yirik tadqiqotlar oqimini boshlab berdi. Amir

Temur tarixi o‘rin olgan asarlarni nashr etish nafaqat Fransiyada, balki butun Yevropada keng tus oldi. Fransuz sharqshunoslari “Temurshunoslik”ni tarixshunoslik yo‘nalishida tadqiq etishlari natijasida XVI–XVII asrlarda Amir Temur tarixini noto‘g‘ri yoritgan Fransiya tarixshunoslarining asarlariga ushbu mamlakat sharqshunoslari tomonidan ilmiy munosabat bildirildi.

11. Fransuz jamiyatida XVIII asrdayoq “Tamerlan” so‘zi o‘zining asl lug‘aviy ma‘nosidan ayrilib, ajoyib g‘oyalarni uyg‘otuvchi, e‘tiborni jalb etuvchi ma‘nolarida qo‘llanila boshlangan.

12. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati XVIII asrning ikkinchi yarmida katta qiziqish bilan o‘rganildi. Amir Temurning atoqli davlat arbobi va mohir sarkarda ekanligi, shuningdek, uning faoliyati mahsullari Fransiya tarixida ham ijobiy iz qoldirganligi bu qiziqishni ta‘minlagan asosiy omillar bo‘lib xizmat qildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid fransuz tilida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar bibliografiyasini yaratish;

2. Fransiyadagi turli qadimiy kitob fondlari, kutubxonalar, muzeylar va shaxsiy jamg‘armalardagi Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid tarixiy manbalarning, jumladan, arab, fors, turkiy tillardagi qo‘lyozmalar, hamda ularning o‘rta asrlarda g‘arb tillariga qilingan ilk tarjimalari katalogini tuzish;

3. Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganish bo‘yicha jahon temurshunosligida erishilgan natijalardan samarali foydalangan holda ingliz, fransuz, nemis, rus, ispan va arab tillaridagi media mahsulotlar platformasini yaratish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ
НАУЧНОГО СОВЕТА ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ИСРАИЛОВ НОДИР РАХИМЖОНОВИЧ

**ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
АМИРА ТЕМУРА ВО ФРАНЦУЗСКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ
XV–XVIII ВЕКОВ**

07.00.08 – Историография, источниковедение и методы исторических исследований

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Tar1165.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Усмонов Бахриддин Ахмедович
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты :

Дониёров Алишер Худайбердиевич
доктор исторических наук, профессор

Расулова Дурдона Бахроновна
доктор философии исторических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «28» 07 2025 г. в 9:00 часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 при Ферганском государственном университете. (Адрес: город Фергана, улица Мураббийлар, Ферганский государственный университет, Факультет истории, 2-этаж, зал совещаний. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz, Ферганский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за №543). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, дом №19. Здание ИРЦ). Тел.: (99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан «14» 07 2025 года.

(реестр протокола рассылки № 43 от «14» 07 2025 года).



Н.Б.Дехканов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

Н.О.Алимова

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам, доцент

М.Г.Абдуллаев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях, когда процессы глобализации охватывают все регионы мира, возрастает необходимость изучения жизни и государственной деятельности исторических личностей, в том числе Амира Темура, которые объединили большие территории, внесли огромный вклад в развитие интеграционных процессов между народами. Исследование деятельности таких исторических личностей имеет большое значение в эффективном использовании достижений глобализации и выработке правильных решений тех или иных вопросов, возникающих на повестке дня в результате этого процесса.

История Амира Темура широко изучается во многих центрах востоковедения, научно-исследовательских институтах и учебных заведениях мира¹. Перевод на французский язык источников на восточных языках, освещающих жизнь и государственническую деятельность Амира Темура, создание на этом языке крупных научных трудов по данной теме был осуществлен еще в средние века, тем самым оказав большое влияние на становление и развитие мирового тимуроведения. Однако данный вопрос не был исследован с точки зрения историографии. Именно поэтому анализ вопроса освещения жизни и государственной деятельности Амира Тимура во французской историографии служит раскрытию генезиса развития мирового тимуроведения.

В нашей стране уделяется большое внимание изучению истории наших великих предков, внесших достойный вклад в развитие мировой цивилизации. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев: «У нас достойная восхитительная великая история, достойные восхитительные великие предки»². Исследование изучения жизни и государственной деятельности одного из таких великих деятелей мира, каковым является Амир Темура, послужит для осознания его достойной роли в развитии мировой цивилизации, более глубокого понимания молодым поколением истории Родины и твердой уверенности в будущее. Эти аспекты определяют актуальность и необходимость исследования.

Данная диссертация в определенной степени может способствовать реализации задач, обозначенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об

